

FRANSUZ VA INGLIZ TILLARIDAGI EMOTSIONAL FE'LLARNING
O'XSHASH VA FARQLI JIHLTLARI

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.015>

Nurullayev Javohir

Turon universiteti o'qituvchisi

E-mail: javohir9060@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-2677-1833

AbduraxmonovaNasibaxon

Turon universiteti talabasi

abduraxmonovanasiba565@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada emotsiya haqida umumiy ma'lumot, til va emotsiya o'rtasidagi bog'liqliklar tahlil qilinadi. Fransuz va ingliz tilidagi emotsional fe'llarning o'xshashlik va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi. Tilshunoslikda emotsional fe'llarning tur va guruhlari to'g'risida emotsional fe'llarning inson shaxsiyatiga ta'siri va badiiy adabiyotda emotsional fe'llarning qo'llanish o'rni, emotsiyani shaxsning atrofidagi voqea hodisalarga bo'lgan munosabati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *emotsiya, til va emotsiya, emotsional fe'llar, emotsional holat, ruhiy holat, ichki hissiyot, bo'yoqdorlik*

**SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF EMOTIONAL VERBS IN FRENCH
AND ENGLISH**

Annotation. This article provides general information about emotions, analyzes the connections between language and emotions. The similarities and differences between emotional verbs in French and English are examined. About the types and groups of emotional verbs in linguistics. About the influence of emotional verbs on human personality and the role of emotional verbs in fiction, about emotions as a person's reaction to events around them.

Keywords: *emotion, language and emotion, emotional verbs, emotional state, mental state, inner feeling, colorism*

Kirish. Biz bilamizki emotsiya bu insonning o'ziga va atrofiga, tashqi ta'sirlarga va voqea-hodisalarga bildiriladigan munosabati hisoblanadi. Emotsiyamiz orqali biz tashqi voqealarga nisbatan ichki hissiyotlarimizni bildirishimiz mumkin. Xuddi shundek emotsional fe'llar shaxsning ichki kechinmalari va hissiy holatlarini bildiradigan fe'llar hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, til va emotsiya o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Biz til orqali tashqi voqealarga munosabatimizni bayon qilsak, emotsiyamiz bilan yuz mimika

orqali ifodalaymiz. Bu ikki jihat hayotimizda boshqalarga bo'lgan munosabatimizni to'laqonli ifodalashga va tushuntirishga yordam beradi.

Hislar sezgi bilan bog'liq bo'lgan idrok etish jarayoni bo'lib, uning ta'sirida ko'pincha insonga ta'sir qiladigan, uni xafa qiladigan ruhiy holat vujudga keladi. Keyin emotsiya paydo bo'ladi. Emotsiya kuchli quvonch, qo'rquv va boshqalar hissi tufayli yuzaga keladigan vaqtinchalik jarayondir.³⁷ [5,341].

Ruhiy holat shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmalardir. Shaxs tirik mavjudot bo'lishi bilan birga jamiyat a'zosi hamdir, shuningdek, yakka inson sifatida tevarak- atrofdagi narsa va hodisalarga munosabatini xolisona aks ettiradi³⁸[2,86].

Inson munosabatlari uning miyasida his-tuyg'ular, emotsional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi ruhiy holatni va his-tuyg'uni keltirib chiqaradi. Umuman olganda, ruhiy holat inson his- tuyg'ularidan kelib chiqadigan holatdir. Ba'zida ruhiy holatni emotsiya bir xil ma'noda ishlatilishi holatlari ham uchrab turadi. Kishi tana a'zolarining ranglari o'zgarishi, lablarning titrashi, g'amginlik yoki kulguda boshqa kurinishga kelishi albatda emotsiya bilan ham bog'liq hodisadir. Ammo, ikki tushunchaning o'zaro farqi shundaki ruhiy holat ijtimoiy tushuncha hisoblansa, emotsiya esa xususiy ahamiyat kasb etadi. Ruhiy holat- bu juda keng tushuncha hisoblanadi. Shuningdek, ushbu holat faqat shaxsga tegishli hamdir. Shaxs- bu idrok qiladi, esda olib qoladi, fikr yuritadi va his tuyg'ularini ruhiyat orqali ko'rsata oladi. Shaxsning faoliyati, xulq-atvori, muomalasi hamda jamiyat uchun ahamiyatli hisoblangan narsa va hodisalar aks ettiruvchi munosabati ruhiy holatda mujassamlashadi. Emotsiya esa faqat insonlarga emas, mavjudotlarga ham ta'luqli holat hisoblanadi.

Metodlar. Tilshunoslikda emotsional fe'llar muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan ular fransuz va ingliz tillarda ham asosiy o'ringa ega. Ikki tilning emotsional fe'llariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ulardagi emotsional holatlar o'xshash bo'lsada, ammo talaffuz va tarjimai turlicha bo'ladi. Masalan, ingliz tilida emotsional fe'llar umumiy STATE VERB deyilsa, fransuz tilida esa ingliz tili singari ular uchun umumiy nomlanish yo'q ammo VERBES de SENTIMENT deb nomlash mos keladi ya'ni his-tuyg'u fe'llari. Ingliz va fransuz tillarda ham hissiyotimizni ikki xil ifodalash mumkin ya'ni ijobiy va salbiy. Quyida ikkala tilga ham tegishli bo'lgan ijobiy va salbiy fe'llarga misollar keltirilgan.

INGLIZ TILI		FRANSUZ TILI	
Positive	Negative	Positif	Négatif
Love	Hate	Aimer	Détester
Like	Dislike	Adorer	Déplaire

³⁷ Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2010

³⁸ Abdumajidov H, Psixologiya Toshkent 2006

Adore	Fear	Admirer	Mépriser
Enjoy	Regret	Approuver	Regretter
Appreciate	Worry	Apprécier	Souffrir
Excite	Ignore	Se réjouir	Haïr

Bu emotsional fe'llar insonning ichki hissiyotlari, ruhiy kechinmalari va voqea-hodisaga bo'lgan munosabatini ifodalovchi fe'llardir. Bu turdagi fe'llar tilning oddiy harakat yoki holatni bildiruvchi vositalaridan farqli ravishda, nutqqa hissiy bo'yoq, kuchli ta'sirchanlik va obrazlilik bag'ishlaydi. Emotsional fe'l qo'llangan gapda muallifning kayfiyati, ruhiy holati yoki voqelikka munosabati sezilib turadi, chunki bunday fe'llar shaxsning quvonchi, g'azabi, qo'rquvi, hayrati, iztirobi yoki mamnunligini bevosita aks ettiradi.

Natijalar. Fransuz va ingliz tillarida emotsional fe'llar tizimi lisoniy va madaniy jihatdan bir-biriga juda yaqin, ammo o'ziga xos farqlarga ham ega. Bu ikki tildagi *o'xshash jihatlar*, eng avvalo, inson ruhiyatining universalligidan kelib chiqadi. Har ikki tilda ham emotsional fe'llar shaxsning subyektiv munosabatini bildirishga xizmat qiladi va ular birdek "ijobiy" hamda "salbiy" qutblarga bo'linadi. Masalan, quvonch, muhabbat va hayrat kabi tuyg'ularni ifodalash uchun ingliz tilida "love" yoki "adore" fe'llari qo'llanilsa, fransuz tilida ularning to'g'ridan-to'g'ri muqobillari bo'lgan "aimer" va "adorer" fe'llari mavjud. Bu fe'llarning har ikkala tilda ham nafaqat harakatni, balki uzoq davom etuvchi ruhiy holatni ifodalashi ularning funksional jihatdan o'xshashligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ushbu tillar o'rtasida *farqli jihatlar* ham sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Eng asosiy farq terminologik tasniflashda ko'rinadi. Ingliz tili grammatikasida bunday fe'llar ko'pincha harakatni emas, balki holatni bildirgani uchun umumiy "State Verbs" (Holat fe'llari) turkumiga kiritiladi. Fransuz tilida esa bu guruh uchun alohida umumiy bir atama mavjud bo'lmasa-da, ularni ko'proq "Verbes de sentiment" (His-tuyg'u fe'llari) deb atash qabul qilingan. Bu esa ingliz tilida mantiqiy-grammatik yondashuv, fransuz tilida esa semantik-psixologik yondashuv ustunligidan dalolat beradi.

Yana bir farqli jihat leksik fondning boyligi va hissiy rangdorligidadir. Garchi jadvaldagi misollarda "love/aimer" yoki "regret/regretter" kabi fe'llar bir xil ma'noni anglatayotgandek ko'rinsa-da, ularning qo'llanilish doirasi va nutqdagi emotsional yuki farqlanadi. Fransuz tilida emotsional fe'llar ko'pincha insonning o'z ichki dunyosiga yo'naltirilgan va ijtimoiy muloqotning nozik qirralarini ifodalash uchun kengaytirilgan bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "fear" (qo'rqmoq) fe'li ko'proq obyektga nisbatan qo'llanilsa, fransuz tilida bu tuyg'uning turli darajalarini ifodalovchi o'nlab sinonimlar mavjud bo'lib, ular subyektning ijtimoiy mavqeyiga qarab turlicha tus oladi.

Muhokama. Bundan tashqari, tillar orasidagi lingvistik qarindoshlik sababli ko'plab emotsional fe'llar bir xil o'zakka ega (masalan, "Appreciate" va "Apprécier"). Biroq,

ularning nutqdagi sintaktik bog'lanishi farq qilishi mumkin. Ingliz tilida emotsional munosabat ko'proq to'g'ridan-to'g'ri va sodda ifodalansa, fransuz tilida bu jarayon ko'pincha murakkabroq grammatik qurilmalar yoki qo'shimcha modal so'zlar yordamida emotsional bo'yoq oladi.

Emotsional fe'llar nafaqat badiiy matnlarda, balki kundalik nutqimizda ham muhim rol o'ynaydi. Emotsional fe'llar orqali insonning kayfiyati, ichki kechinmalari, foydalanilayotgan gaplarga munosabati tabiiy va ravshan ifodalanadi. Shu sababli emotsional fe'llarni o'rganish tilning semantik tizimini yanada yaxshiroq anglashga yordam beradi va nutqda emotsional rang-baranglikni oshiradi.

Har ikki tildagi yozuvchilarning asarida emotsional fe'llar asarga jozibadorlik hamda bo'yoqdorlik beradi va asarni yanada o'quvchini o'ziga jalb etuvchi asar paydo bo'ladi. Masalan Albert Kamyu ning "Les Souffrances du jeune Werther" asarida yozuvchining emotsional fe'llarni o'z o'rnida mahorat bilan qo'llaganini ko'rish mumkin. Undagi har bir emotsional gap va so'zlar insonni befarq qoldirmaydi. Bunga o'xshagan misoldagi kitoblardan biz juda ko'plab variantlarni keltirishimiz mumkin.

Xulosa. Inson o'z kechinmalarini ifodalashda emotsional fe'llarga murojaat qilar ekan, u nafaqat axborot uzatadi, balki o'sha axborotga o'zining shaxsiy muhrini bosadi. Masalan, tashqi olamda sodir bo'layotgan biron-bir hodisaga nisbatan "quvonmoq", "zavqlanmoq" yoki aksincha, "tashvishlanmoq" fe'llarini qo'llash orqali shaxs o'sha voqelikni o'zining ichki "filtrlari" dan o'tkazadi. Bu jarayonda til obyektivlikdan subyektivlikka ko'chadi, ya'ni quruq faktlar o'rnini jonli, his qilinadigan hayotiy tajriba egallaydi. Shu sababli ham, emotsional fe'llar insonning o'zligini anglash va uni boshqalarga tanitish vositasi sifatida ulkan ahamiyatga ega.

Xohish va istaklarni ifodalovchi fe'llar esa inson irodasining dinamikasini ko'rsatib beradi. Ular shunchaki passiv hislar emas, balki kelajakka yo'naltirilgan intilishlar, maqsadlar va orzularning poydevoridir. Biz biror narsani "istaymiz" yoki unga "intilamiz" deganimizda, ichki dunyomizdagi yetishmovchilikni to'ldirishga yoki mavjud ijobiy holatni yanada boyitishga bo'lgan ehtiyojimizni tilga chiqaramiz. Bu esa emotsional fe'llarning nafaqat tasviriy, balki harakatga keltiruvchi, motivatsion kuchga ega ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, bu fe'llar muloqot jarayonida empatiya, ya'ni hamdardlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Inson o'zining salbiy yoki ijobiy munosabatini ochiq ifodalar ekan, u atrofidagilarga o'zining ruhiy chegaralarini va qiziqishlarini bildiradi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishiga, insonlar o'rtasidagi o'zaro tushunishning chuqurlashishiga yordam beradi. Mohiyatan olganda, emotsional fe'llar bizning his-tuyg'ularimizga "nom" beradi va mavhum tuyulgan ichki kechinmalarni aniq muloqot birligiga aylantirib, ruhimizning eng yashirin qirralarini so'z orqali jilolantiradi.

Xulosa qilib aytganda biz emotsional fe'llardan o'zimiz haqimizdagi, ichki hissiyotlarimizni ta'riflashda, tashqi voqea hodisalarga bo'lgan munosabatimizni ijobiy yoki salbiy, xohish va istak kabi holatlarni bildirishda foydalanamiz. Bu orqali biz ichki kechinmalarimizni ifodalaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2010
2. Abdumajidov H, Psixologiya Toshkent 2006
3. Toshpo'latov, D. Fransuz tilida inson tuyg'ularini tilda aks ettirish vositalariga doir // Molodoy ucheniy. — 2023. — № 18 (465). — S. 450-452.
4. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2010
5. Abdumajidov H, Psixologiya Toshkent 2006
6. Шукурова, Р. А. Fransuz tilida inson tuyg'ularini tilda aks ettirish vositalariga doir / Р. А. Шукурова, Ф. Х. Синдаров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 51 (341). — С. 483-487. — URL:
7. Nurullayev, J. *Fransuz tilidagi emotsional fe'llar va ularning badiiy-funksional xususiyatlari*. Toshkent: Turon Universiteti, 2025.

